
KUCHLI SHAMOL NATIJASIDA YUZAGA KELGAN NOSOZLIKLAR BARTARAF ETILMOQDA

Viloyatimizda kuzatilayotgan kuchli shamol natijasida elektr uzatish tarmoqlarida favqulodda avariya uzilishlar yuzaga keldi.

Jumladan, nosozliklar Qo'qon shahri, Uchko'prik, Buvayda, O'zbekiston hamda Furqat tumanlarining ayrim hududlarida kuzatilmoqda.

Ayni vaqtda "Farg'ona hududiy elektr tarmoqlari korxonasi" AJ rahbariyati tomonidan barcha shahar, tuman elektr ta'minoti korxonalarida tezkor chiqish brigadalari tashkil etilgan bo'lib, har bir yuzaga kelgan nosozliklarni bartaraf etish ishlari to'liq nazoratga olingan.

Hududlarda yuzaga kelayotgan nosozliklarni qisqa muddatda xavfsiz bartaraf etish choralari ko'rilmoqda.

"Farg'ona HETK" AJ matbuot xizmati

2023-04-15 13:47:39